



QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

**Ilmiy rahbar: Xudayarova Muxabbat
Tajimuratovna**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O‘zbek tili kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston hududidagi ekklezionimlarning grammatik xususiyatlari o‘rganilgan va ilmiy asosda tahlil etilgan. O‘rganilayotgan hududdagi sodd shakldagi ekklezionimlar va ularning morfologik tarkibi ham tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekklezionimlar, diniy tashkilot, diniy bino, masjid nomlari, Qoraqalpog‘iston hududi, toponimiya, onomastika, tub so‘z shaklidagi ekklezionimlar.*

Аннотация: *В данной статье на научной основе изучаются и анализируются грамматические особенности эkkлезионимов Каракалпакстана. Также проанализированы простые эkkлезионимы изучаемой территории и их морфологический состав.*

Ключевые слова: *эkkлезионимы, названия религиозной организации, культовое сооружение, мечеть, область Каракалпакстана, топонимия, ономастика, эkkлезионимы в корневой форме.*

Annotation: *In this article, the grammatical features of ecclesionyms in Karakalpakstan region are studied and analyzed on a scientific basis. Simple ecclesionyms in the studied area and their morphological composition were also analyzed*

Key words: *ecclesionyms, names of a religious organization, religious building, mosque, region of Karakalpakstan, toponymy, onomastics, ecclesionyms in root form.*

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Tilimizning lug‘at tarkibida atoqli otlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Nomshunoslik (onomastika) – tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganuvchi, tadqiq etuvchi alohida bir sohasidir. Tilimizda bugungi kunda mavjud bo‘lgan atoqli otlar majmuasi ulkan madaniy merosimiz, bebaho lisoniy boyligimizdir. Bular xalqimiz tafakkurining mevasi sifatida davrlar osha avloddan-avlodga, nasldan-naslga o‘tib, bizgacha etib kelgan nomlardir. Atoqli otlarni o‘rganish nafaqat o‘zbek tilshunosligi uchun, shu bilan birga tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlari uchun ham alohida ahamiyatga egadir.

Respublikamiz fuqarolarining dinga e‘tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarini birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e‘tirof etiladi [3]. Tilshunoslikda diniy marosimni



ado etish uchun to'planiladigan joyning, jumladan machit, cherkov, monastir kabilarning atoqli oti **ekklezionim** [1] deyiladi.

Mazkur maqola Qoraqalpogiston hududidagi ekklezionimlarning grammatik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanganligi bilan dolzarbdir.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Onomastika rivojlanishining zamonaviy bosqichiga diniy binolarning tavsiflanishi hamda bu nomlarning ilgari o'rganilmaganigini e'tiborga molik.

Ekklezionim – toponimiya sohasi nomlari orasida alohida o'rin tutadi. Mazkur nomlar toponimiya sohasida boshqa nomlarga nisbatan yaqinda olimlarning tadqiqot obyektiga aylandi.

Mustaqillikdan keyin diniy marosimlar o'tkaziladigan joylar nomlariga onomatologiya tadqiqotchilarining ilmiy qiziqishlari uyg'ondi.

Ushbu maqolaning maqsadi Qoraqalpogiston hududidagi diniy nomlarning holatini, zamonaviy onomastik tizimdagi o'rnini aniqlashdir.

Masjid (Machit) (arab. – sajda qilinadigan joy) – musulmonlar jamoa bo'lib, namoz o'qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o'qish uchun mo'ljallangan. Juma va hayit namozlari esa jome masjidlarida o'qiladi. Birinchi masjidni Madinada Muhammad payg'ambar qurdirgan. Masjidlar dastlab shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallalarda barpo etilgan. Masjidlarning to'rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida mehrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo'ladi. Ayrim yirik masjidlar mehrobining o'ng tomonida va'zxonlik uchun mo'ljallangan minbar, ba'zilarida esa Qur'on o'qiladigan maxsus joylar ham bo'ladi. Ba'zi masjidlar huzurida maktablar ham bo'lib, ularda o'g'il bolalarga Qur'on o'qish o'rgatiladi. Masjidlarda juma va hayit namozi kunlari imom-xatiblar xutba o'qib, turli diniy masalalar bo'yicha va'zxonlik qiladi. O'zbekistonda 2000 ga yaqin masjid bor (2003). Masjidlarda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga amal qilingan holda faoliyat yuritiladi.

O'zbekistonda mustaqillikdan keyin an'anaviy va zamonaviy me'morlik usullarini uyg'unlashtirgan holda masjidlar qurilmoqda (masalan, Buxoriy yodgorlik majmui, Toshkentdagi Nosirxon jome masjidi, G'azalkentdagi Olimjon jome masjidi va boshqalar) [4].

Jome masjid– shahar markazidagi yoki nisbatan katta hududdagi asosiy va eng katta bosh masjid. Jamoa uchun zarur turli xabarlar e'lon qilinadigan, haftalik juma, xayit namozlari jamoa bo'lib o'qiladigan maxsus bino. Shahar tashqarisida musallo, namozgoh.



Cherkov (yun. kyriake – xudoning uyi) – 1) xristianlikdagi maxsus diniy tashkilot. O‘z diniy aqidalari va marosimlari tizimiga ega. Cherkov – xristian dinining urf-odatlarini va ibodatlarini uchun barpo etilgan imorat. Xristian dinining ko‘p asrlik rivojlanish tarixida har bir xalqda har turli cherkov turlari shakllangan.

TADQIQOT NATIJALARI.

Ekklezionimlar o‘ziga xos grammatik tuzilishga ega bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tili leksemalaridan ba’zi jihatlari ko‘ra farqlanadi. Buning asosiy sababi, nom tarkibi ma’lum davrlar davomida turkiy va noturkiy qatlam asosida shakllangan.

Tub so‘z shaklidagi ekklezionimlar: **Xalq jome masjidi** (Taxtakopir tumani) **Shumanay jome masjidi** (Shumanay tumani) **Xalqabad jome masjidi** (Kegeyli tumani), **Safo jome masjidi** (Ellikqal’a tumani), **To‘rtko‘l jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Shoraxan jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani) kabi.

Ekklezionimlarning xususiyatlaridan biri ularning konstruksiyasining o‘zgaruvchanligidir.

Qo‘shma toponimlarning morfologik tarkibi turlichadir. Ular qaysi turkumdagi so‘zlardan tashkil topganligiga ko‘ra ot+ot (*Darvesh Eshon, Xoji Eshon*), sifat+ot (*Sari Eshon*), ot + fe‘l + sifat (*Allahberdi aziz*), singari tiplarga bo‘linadi. Quyida ularning har biriga alohida-alohida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Ot+ot qolipidagi qo‘shma ekklezionimlar. Ikki otning o‘zaro birikib, qo‘shma jug‘rofiy nomlar hosil qilishi o‘zbek tilida ancha keng tarqalgan lisoniy hodisalardandir. Ot+ot qolipidagi qo‘shma ekklezionimlarning ikkinchi qismida ko‘pincha **eshon, baba, qala, ota, axun** singari joy – obyekt bildiruvchi so‘zlar, ya’ni toponimik indikatorlar ishtirok etadi. Bu xil nomlarning birinchi qismlari turli ma’nolarni bildiruvchi so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkin. **Darvesh Eshon jome masjidi** (Beruniy tumani), **Xoji Eshon jome masjidi** Amudaryo tumani **Imom Eshon jome masjidi** Nukus tumani **Eshon qala jome masjidi** Kegeyli tumani **Pirim Eshon bobo jome masjidi** (Xo‘jayli tumani) **Tilao‘ baba jome masjidi** (Xo‘jayli tumani), **Muhammad Karim jome masjidi** (Xo‘jayli tumani), **Badr ota jome masjidi** (Beruniy tumani) **G‘oib ota jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani) **Quchqar ota jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Muhammad Norinjoniy jome masjidi** (Ellikqal’a tumani), **Abdullo Norinjoniy jome masjidi** (Ellikqal’a tumani), **Quziboy bobo jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Bobo Rustam jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Taqmoq ota jome masjidi** (Mo‘ynoq tumani), **Muhammad Murod jome masjidi** (Taxiyatosh tumani), **Sulton Uvays bobo jome masjidi** (Beruniy tumani), **Yambash qal’a jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Miskin baba jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), kabi.



Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **Muntik baba jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Nog‘ay Eshon bobo jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Yerejeb biy jome masjidi** (Nukus shahri), **Imom eshon Muhammad jome masjidi** (Nukus shahri), **Shayx Abbas jome masjidi** (Beruniy tumani), **Mulla Sa'dulla jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Masharif Aqsaqal jome masjidi** (Ellikqal'a tumani), **Yakub Eshon jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Yusup Eshon bobo jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Abdijamil Eshon jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Syuyin Eshon jome masjidi** (Kegeyli tumani), **Mag‘zan Eshon jome masjidi** (Kegeyli tumani), **Kamal axun jome masjidi** (Nukus tumani), **Iskandar va Alao‘atdin Eshon jome masjidi** (Kegeyli tumani), **Idris Eshon jome masjidi** (Qorauzak tumani), **Imitdin Eshon jome masjidi** (Nukus tumani), **Yoshim axun jome masjidi** Qanliko‘l tumani **Xan Shimbay jome masjidi** (Chimboy tumani) kabi ot+ot qolipidagi qo‘shma ekklezionimlarning ma‘nolari ularni hosil etgan komponentlarning ma‘nolariga ko‘ra turli xildir.

Xullas, yuqorida aytilganlardan anglashiladiki, toponimlarning eng ko‘p va asosiy qismini ot+ot qolipidagi qo‘shma ekklezionimlar tashkil etadi. Ularning yuzaga kelishida joy (makon) bildiruvchi turli indikatorlar hamda kishi ismlari, etnonimlar, geografik atamalar, turli predmet nomlari katta rol o‘ynaydi. Bu turdagi joy nomlari sintaktik jihatdan asosan, qaratqichli, qisman sifatlovchi birikmalarning zaminida yuzaga keladi. Qo‘shma ekklezionimlarning ma‘nolari ularni tashkil etgan komponentlarning o‘zaro ma‘no munosabatidan kelib chiqadi.

2. Sifat + ot yoki ot + sifat qolipidagi qo‘shma ekklezionimlar. Sifat bilan otning birikuvidan tuzilgan qo‘shma ekklezionimlar O‘zbekiston jug‘rofiy nomlari tizimida ancha keng tarqalgan. Qo‘shma toponimlarning bu tipi obyektlarning turli xil tabiiy-fizik xususiyatlarini, biror belgisini bildirishga xizmat qiladi. Ushbu qolipda yasalgan jug‘rofiy nomlarning sifat qismlari (komponentlari) tarkib jihatdan quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi: **Sari Eshon jome masjidi** (Taxiatosh tumani), **Allahberdi aziz jome masjidi** (Nukus shahri) kabi.

Sifat + ot qolipidagi ekklezionimlarning birinchi komponentlari ma‘nosiga ko‘ra rang-barang ko‘rinishlarga egadir. Rang-tus ma‘nosini bildiruvchi sifatlar bilan otning birikuvidan yasalgan qo‘shma toponimlar. Toponimlarning bu xilda yasalishida rang-tus ifodalovchi oq, qora, sariq sifatlari ishtirok etadi.

Bu yerda shuni qayd etish lozimki, ekklezionimlar tarkibida qo‘llangan sariq, malla so‘zlari rang ma‘nosidan tashqari, xilma-xil ma‘nolarni ifodalab keladi. Bu xususiyat olimlardan A.N.Kononov, E.M.Murzaev, N.G.Mallitskiy, V.L.Vyatkin, H.Hasanov, S.Qorayev, T.Nafasovlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.



-chi, -li affikslari ayrim hollarda ekklezionimlar yasovchilarga yaqin tursa ham ayrim xususiyatlari bilan yasovchilardan farq qiladi: **Ketmishi baba jome masjidi** (Taxiatosh tumani), **Xayrli baba jome masjidi** (Beruniy tumani), **Malladunli jome masjidi** (To'rtko'l tumani), **Qarshili xo'ja jome masjidi** (Amudaryo tumani) kabi. Bunday affikslar yasagan so'zlar jamlik ifodalashi, inson faoliyati va kasb-hunarini ko'rsatishi, kishilar guruhini bildirishi kabi bir qator ma'nolari bilan toponimik modellarga mos keladi. Shuning uchun bu tipdagi qo'shimchalarni toponimik format (yoki topoformant) deb atash mumkin [2]. Formantli nomlarning tuzilishi ancha murakkabdir.

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, ekklezionimlar xalq hayoti bilan uzviy bog'liqligi, xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, madaniy, ma'naviy, ruhiy turmushini aks ettirganligi bois toponimik lug'atlar muhim ilmiy, amaliy, tarixiy, ma'rifiy ahamiyatga egadir. Shuning uchun turli xil maqsadlar va tamoyillar asosida toponimik lug'atlar yaratish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E.A., Uluqov N.M. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – 103 b.
2. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997.
3. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 8-modda. – T., 1998. – B. 5.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
5. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). "BOBURNOMA"–TARIXIY MANBA SIFATIDA. Академические исследования в современной науке, 2(4), 24-27.
6. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(5), 25-32.
7. Tajimuratovna, X. M., & Tajimuratovna, X. M. (2023). O 'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TILIDA QO 'LLANILGAN ORNITONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI. SCIENCE TIME JOURNAL, 1(3), 50-62.
8. Tajimuratovna, X. M., Menglibayevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Menlibayevna, S. A. (2023). QORAQALPOG 'ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING O 'ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 25-30.